

## NATIONAL TRADITIONS - A SYMBOL OF THE NATION

Saparniyazova Zuhra Abdullaevna  
Utegenova Jamila Djolmurzaevna  
Abatov Askar Reyimbaevich

Teachers of the department "National idea, spirituality and legal education" of  
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

### Key words:

customs, traditions, people, national rituals, future, factor

Xar qanday milliy dastur ko`pgina tarixiy davrlar asosida shakllanib, ma`lum bir xalqning urf-odat, udumlarni tashkil etadi. Dastur har xalqning ongi va madaniyati bilan bog`liq bo`lganligi uchun ham bir xalq bilan ikkinchi xalqga ancha o`xshash hisoblanadi. Lekin bazi vaqtlarda butunlay bir-biridan farq qiladigan urf-odatlar ham uchrashadi. Qoraqalpog`istonda qoraqalpoqlar bilan birga o`zbeklar, qozoq va turkmanlarning aralash yashashiga bog`liq bir qator urf-odat, marosimlar ko`p uchrashadi. Xar qanday urf-odat, dastur har bir xalqning milliy xususiyatlarining asosini tashkil etadi.

Dasturlar – xar bir xalqning asrlar davomida bosib o`tgan yo`li. Odamzot o`z tarixi davomida yaxshi va yomon kunlarni boshidan kechirgan. SHuning uchun ham, yaxshi xodiyasalarini o`ziga urf-odat sifatida qabul qilgan. Biz bu maqolada qoraqalpoq xalqining bir nechta mana shunday urf-odat, dasturlarini keltiramiz.

«Non og`iz tiyish» - Qoraqalpoq xalqida tashqaridan odam kelsa, ichkariga taklif etiladi. Lekin, agar u shoshilinch ekanligini aytsa, uy egasi non og`iz tegsin degan niyatda dasturxonadan non uzatadi. U odam nondan ozgina olib, omin qiladi va nondek bag`ring butun bo`lsin deydi. Bu urf-odat tandir boshida ham qo`llaniladi. Tandır yonidan o`tib ketayotgan begona kishi bo`lsa ham non og`iz tiyish taklif etiladi. Non yopayotgan yangalar xazillashib «katta qilib sindirib ol, qalin puli ko`p bo`lsin», -deydi, o`g`il bolalarga qarata «non og`iz tegmasang yaxshi ko`rgan qizin tashlab ketadi», -deb xazillashadi. Nondan og`iz tiyishni rad etsa bu insonning ishi xaqiqattan ham yurishmaydi deb ishonishadi. CHunki nondan og`iz tiyish – o`z nasibasidan tatib ko`rish hisoblanadi.

Tandır yopgan yangalardan bor taklif,  
Ruxsat yuq og`iz tegmay o`tishga,  
Kun SHarqga safar chekkan azamat,  
SHoshil do`stim, bizning yurtga kelishga

I.YUsupov [1:28]

«Qo`ldan suv olish» - Mehmondo`st xalqimizda uyimizga mehmon kelsa xursand bo`lib kutib olamiz. Hol axvol so`rashkandan keyin qo`ldan suv oladi. Qo`ldan iliq suv olib uni bo`lib-bo`lib quyadi. Bo`lib-bo`lib quyishning asosiy sababi XIX asr oxiri XX asr boshlarida suv nihoyatda qadrlil bo`lgan, uning har bir tomchisini qadrlashgan va ushbu odat saqlanib qolgan. Suv olgan odamga yaxshi tilaklar aytilib, keyin fotiha beriladi. Ovqat egandan keyin uyning keliniga ovqat solingan tovoq beriladi. Kelin uni pastga bir egilib oladi va undan ozgina «sarqit» uchun ozgina yeydi. Qoraqalpoqlarda «sarqitta shifo bor» degan ma`noli gap mavjud. Ovqat yegan laganni yerga bir tushurib olishning asosiy sababi kelgan mehmonga bir teran egilib ta`zim qilishdan iborat. Qoraqalpoq xalqi mehmonni qattiq hurmat qiladi. «Mehmon hududan bir yosh kichik», -degan gap mavjud.

«Nomini aytib chaqirmaslik» - Qoraqalpoqlarda kelinning ko`pincha boshqa «uruv»dan olishadi. SHuningdek, yangi tushgan kelinchakka shu ovulning yoshi kattalarining bari qaynog`a, xotinlarning bari ovsin, yosh kichiklari qaynuka, biykesh deb hisoblanadi. Kelin

ularning nomlarini aytmaslik dasturi saqlanib qolgan. Buning urniga «oq yigit», «mirza og`a», «suluv», «oppoq», «bek yigit» nomlari qo`yishadi yoki ularning laqablari bilan atashadi.

**«Aydar soch qo`yish»** - bu urf-odat dasturi qoraqalpoqlarda eskidan bor bo`lib, o`g`il bola tug`ilgan paytdan uning boshining markazi atrofidan Aydar soch qoldiradi va uni oldirmaydi. Aydar soch quyish qoraqalpoqlardan tashqari qozoq, mo`g`ul, xitoy, ukrayn, qalmoq va bazi turkiy xalqlarning salt-dasturlariga kiradi. Aydar soch ayrim bolalarda tug`ma tabiiy bo`ladi. Ayrim ota-onalar o`zlari qo`yishadi. Aydar soch ko`pincha bola 5 yoki 7 yoshida sunnat qilinganda olinadi va bunga atab aydar to`y beriladi va tog`asi bolaga atab bir toychoq sovg`a qiladi. «Aydarli bola-aybarli bola»,-degan ma`noli gap shundan qolgan. Aydar jasorat va kuchning ramzi hisoblanadi.

Aydar - boshning tepasida tug`ilmagan sochlar to`plami maxsus qoldirilgan. Aydar - jasorat va kuchning ramzi. O'sha kunlarda bolaning boshiga guldasta sochlarini qo`yib, uni marvarid va to`qish bilan aralashtirish odat tusiga kirgan. Ba'zi xonlarning avlodlari va baymanaplar ham sevikli o`g`illarining boshlariga sarlavhalar qo`yishgan. Ushbu an'ana ham o`ziga xos ma'noga ega. Kattalar aydarli bolalarga alohida e'tibor berishadi. Aydarning sochlari faqat uni sunnat qilganda olinadi. Odamlarning aytishicha, sochlar bolani "til-ko`z" dan himoya qiladi.

Ko`pchilik milliy urf-odatlar bilan diniy marosimlar o`rtasidagi farqni yaxshi idrok etmaydilar. Buni farqlashning o`zi ham juda qiyinlashib ketgan. Zero, islom dini qabul etilgandan boshlab diyorumiz xalqlarning hayoti tubdan o`zgarishlar ro`y bera boshlagan. Jumladan, mahalliy milliy urf-odatlarni ham islom dini ko`rsatmalariga moslashtirish jarayoni boshlangan, ya`ni shariatga zid bo`lmagan urf-odatlar qoldirilgan va ular bilan bir qatorda diniy marosimlar ham ijro etila boshlagan. SHu bilan birga eski zamondan qolgan ko`plab bid`at sifatida yuzaga kelgan marosimlarni ham diniylashtirish boshlangan. CHunonchi, dafn marosimi 7, 20, 40, yil hayit, kabi marhumlarga atab o`tkaziladigan tadbirlarda qurxon o`qish, duo qilish orqali ularga diniy tus berila boshlagan. SHundan keyin ularni diniy marosim sifatida qabul qilib, go`yo farz yoki sunnat amallari kabi bajaradigan bo`lib ketishgan. Keyinchalik bunday marosimlarni to`ylardagidek katta ziyofatlar bilan o`tkazish urfga aylanib qolgan. [2;5]

Xulosa qilib aytganda, xalqimizning urf-odatlari asrlar bo`yi millatining tashkil topishida ishtirok etgan barcha qabilalar va elatlarning madaniy malakalari va an`analarining uyg`unlashuvidagi murakkab jarayonlar oqibatida tarkib topgan. Urf-odatlarining ko`pchiligi oilaviy hayotga oid bo`lib, bolaning tug`ilishi va tarbiyasi bilan bog`liq bo`ladi.

## Summary

This article examines the origin and uniqueness of some traditions of the Karakalpak people, which have been formed over several centuries, which are also found in other peoples.

## Adabiyotlar

1. I.YUsupov. «Кеўилдеги кең дунья». Нөкис «Qaraqalpaqstan» 1989
2. A.SHukurov. Jome' masjidini imom xatibi. «Milliy va diniy urf-odatlar». naqshband.uz 03.11.2019